



TALABALAR KONTINGENTIDA AKKULTURATSIYA JARAYONIDAGI ETNIK IDENTIKLIK VA QADRIYATLARNING DIFFERENSIALLASHUVI MUAMMOLARINING ETNOPSIXOLOGIK PREDIKTORLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi

TAFU "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7931652>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Akkulturatsiya, etnik identiklik, qadriyatlar differentsiatsiyasi, ijtimoiylashuv, konformlik, gedonizm. hokimiyat, kognitiv komponent, separatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, madaniy diffuziya.

ABSTRACT

Bugungi globallashuv jarayonida har qaysi mustaqil davlat, har bir millat oldida o'z madaniyati, urf-odat, an'analarini asrab-avaylash, uni o'zidan keyingi avlod vakillariga yetkazish masalasi bilan bir qatorda o'zga xalq, davlat fuqarolarining madaniyati, urf-odat va qadriyatlariga hurmat bajo keltirish, ularga do'stona munosabatda bo'lish masalasi ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari oldida kasbiy muammolarni hal eta oladigan, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga tez moslasha oladigan, turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik qiladigan, o'z faoliyatini ular bilan muvofiqlashtira oladigan malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Maqolada talabalar jamoasida akkulturatsiya jarayonidagi etnik identiklik va qadriyatlarining differentsiallashuvi muammolarining etnopsixologik prediktorlarini tadqiq etishga doir empirik izlanishlarning natijalari tahlil qilinadi.

KIRISH (INTRODUCTION).

O'tgan o'n yilliklarda etnik o'ziga xoslik muammolari bo'yicha olib borilgan intensiv tadqiqotlar natijasida psixologiyada nazariy va amaliy butunlay yangi yo'nalish paydo bo'ldi. O'ziga xoslikning shakllanishi va rivojlanishining xususiyatlarini, uning funksiyalarini, tuzilishini, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan elementlarini hisobga oladigan yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Globallashuv va virtuallashuv davrida OAV ta'siri ham yoshlarni yangi madaniyat shakllari bilan tanishishga, o'zga madaniyat vakillari bilan mazmunli va tizimli aloqalarni yo'lga qo'yishga ham zamin yaratmoqda. O'zga madaniyat qadriyatlari bilan yaqindan tanishish barobarida, shaxsda inkulturatsiya jarayonining kechishi nisbatan "sekin" tus olgani berilayotgan statistik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdi. Bu kabi yuqorida keltirilgan omillar hozirgi kun yoshlarini milliy madaniyati, qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalarni jamoatchilik oldiga qo'yimoqda. Nafaqat o'z, balki boshqa



madaniyatning o'ziga xos jihatlari o'rganish, boshqa millat va elat vakillari bilan tolerantlik ruhida hamkorlik qilish istagi yuqori bo'lgan yoshlar ta'lim olishni ko'pincha chet elda davom ettirishmoqda.

Yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga kirishda chet ellik talabalar o'zlarining madaniyatlararo moslashuvining muvaffaqiyati-muvaffaqiyatsizligiga ta'sir qiladigan (ijtimoiy, psixologik va ijtimoiy-psixologik xarakterdagi) qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun chet ellik talabalarning madaniyatlararo moslashuvining o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash va bu hodisaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini asoslash masalasi tug'iladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (METHODS).

Nazariy jihatdan, tadqiqotning dolzarbligi qator holatlar bilan bog'liq: birinchidan, "akkulturatsiya" tushunchasini ta'riflashda yagona nazariy yondashuvlarning yo'qligi; ikkinchidan, ijtimoiy-psixologiya fanida chet ellik talabalarning madaniyatlararo moslashuvi, akkulturstiya jarayonini boshdan kechirishdagi etnopsixologik xususiyatlari muammosi yetarlicha o'rganib chiqilmagan. O'zbekistonda ta'lim olayotgan talabalar kabi, chet el fuqarolari toifasining akkulturstiya jarayonini "ijtimoiy-psixologik inqirozlarisiz" boshdan kechirish muvaffaqiyatini belgilaydigan xususiyatlar haqida savollar qolmoqda. Uchinchidan, ushbu muammo bo'yicha yagona psixologik bilimlarni shakllantirish uchun nafaqat akkulturstiya jarayoni, balki moslashuvning ijtimoiy-psixologik va madaniyatlararo tadqiqotlarini birlashtirish imkoniyatlaridan foydalanilmagan. Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar bilan bog'liq: chet ellik talabalarning muvaffaqiyatli boshqa ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zaruratida turli etnik guruhga mansub bo'lgan shaxslarning etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishdir. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir jarayoni va uning natijasini ko'rsatish maqsadida akkulturstiya atamasidan foydalanish tavsiya etiladi. Shu o'rinda mazkur atamaning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak. "akkulturstiya" so'zi ingliz neologizmiga lotincha "add" – "ga, tomon, qo'shmoq" so'zlaridan kirib kelgan bo'lib, "culture" – "yetishtirish, ta'lim, rivojlantirish" degan ma'noni anglatib, "yetishtirish yoki madaniyat bilan tanishish"ga nisbatan qo'llaniladi¹. Mazkur atama turli fanlarda turlicha talqin etilib, madaniyatlararo ta'sir, o'zaro hamkorlik, madaniy muloqot, kross-madaniy o'zaro ta'sir etish shaklini ifodalovchi hodisa sifatida o'rganiladi.

"Akkulturstiya" so'zi "madaniyat" so'zidan olinganligi sababli madaniyat tushunchasining mohiyatini aniqlash zarurati tug'iladi. Mohiyat, G.Gegelning fikricha, o'zida ko'rinishga ega bo'lib, u o'zida refleksiv, aks ettiruvchi, o'zini ochib beruvchi funksiyalarni bajaradi².

N.N.Kojevnikovning so'zlariga ko'ra, "mohiyat (narsa) - bu narsaning tub mazmunini, uning muhim xususiyatlarining yig'indisini, mustaqil mavjud bo'lgan mavjudotning substantsiyaviy yadrosini tashkil etuvchi mag'izdir"³.

¹ Социологическая энциклопедия. // Национальный общественно-научный фонд. Рук.науч.проект. Г.Ю.Семигин. – М.:, 2003. – В 2-х тт. – Т. – 694 с.

² Гегель Г. Наука логики. - СПб, 1997. - 799 с. <http://ihtik.lib.ru>

³ Кожевников Н. Н. От равновесия к равновесию: концептуальный анализ относительных равновесий в природе. - М.: Мысль, 1997. – 10 с.



Yu.A.Muravyovning ta'kidlashicha, "madaniyat" so'zi lotincha ciso – "yetishtirish", "qayta ishlash" so'zlaridan olingan bo'lib, shuningdek, xuddi shu manbadan kelib chiqqan "kult" so'ziga qaytadi. Etimologik jihatdan lotin tilida "madaniyat" so'zining eng qadimiy manbasi sphere fe'li bo'lib, asl ma'noda "o'stirish", "rivojlantirish" ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda – "ehtimom", "sajda qilish"⁴ sifatida ham ishlatilgan. Bundan madaniyat asl tub ildizga ega bo'lishi bilan bir qatorda, u azaldan insonning rivojlanishi, takomil topishi uchun xizmat qiladigan vositalar majmui sifatida ham aniq, tarixiy ildizga ega, degan xulosaga kelinadi.

XVIII asrdan boshlab "madaniyat" atamasi ma'naviy ma'no kasb etib, insoniy fazilatlarining takomillashuvini bildira boshladi. Yangi mazmunda madaniyat dastlab metafora ma'nosiga ega edi: dunyoviy jamiyatning yaxshi o'qigan va murakkab odami uni "madaniyatsiz" oddiy odamdan farqlash uchun "madaniyatli odam" deb atala boshlandi.

"Madaniyat" atamasi 1871 yilda ingliz etnografiyasi va antropologiyasining asoschilaridan biri E.Taylor tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u madaniyatni avlod, tur va kenja turlarga kiradigan va individ hayotini tashkil etuvchi hodisalar majmui deb atagan. U madaniyatning mazmun-mohiyatini "bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar, shuningdek, shaxs tomonidan jamiyat a'zosi sifatida ega bo'lgan boshqa qobiliyat va malakalarni o'z ichiga olgan majmui" deb ta'riflagan⁵. E.Taylor madaniyat hodisalarida zamon va makonda takrorlanadigan narsalarni kashf etdi va undan o'tmishning rekonstruktiv vositasi sifatida foydalandi, keyinchalik bu qiyosiy tarixiy metodning eng muhim momentiga aylanib, tipologik taqqoslash nomini oldi. Madaniyatning barcha hodisalari ichida u asosiy e'tiborni dinga qaratgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION).

Akkulturatsiya – madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bir millat vakillari tomonidan boshqa etnik jamoa madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etish jarayonining natijasidir. Akkulturatsiya, shuningdek, hukmron etnik jamoaning xulq-atvor normalarini, kundalik hayot namunalarini, madaniyatini qabul qilishni nazarda tutadi.

Madaniyatlararo o'zaro muloqot muammosi tadqiqotchilar e'tiborini XIX asr oxirida tortishni boshlagan. Akkulturatsiya haqidagi dastlabki tadqiqotlar anglo-sakson madaniyatining hindular va afro-amerikaliklarga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq. Bir madaniyat elementlarini boshqasiga o'zlashtirish va o'tkazish jarayonini belgilash uchun amerikalik tadqiqotchilar Dj.Pauell (1880) va U. Xoumz birinchi bo'lib "akkulturatsiya" atamasini qo'llagan. Bu atama tor ma'noda assimilyatsiya jarayonini, keng ma'noda esa bosqinchilik, mustamlakachilik va migratsiya davridagi madaniy o'zgarishlar jarayonini izohlash uchun foydalanilgan.

Akkulturatsiya tushunchasi ilmiy-nazariy asoslashga urinishlar amerikalik etnograflar (Fr.Boas va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan. Akkulturatsiya haqidagi dastlabki nazariy qoidalar avstriyalik sotsiolog va etnolog R.Turnvald (1932) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ta'kidlashicha, "jamiyat qiyofasi odamlarning irqiy, nasliy xususiyatlarining tarkibiy qismlari, atrof-muhit ta'siri bilan emas, balki odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'siri

⁴ Муравьев Ю. А. Сущность и структура культуры: [http:// www.countries.ru](http://www.countries.ru)

⁵ Культура и культурология: словарь / Сост. и ред. А.И. Кравченко. - М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. - 450 с.



natijasi bilan belgilanadi”⁶. Amerikalik madaniy antropologlar R.Linton, R.Redfield va M.Xerskovitslar 1936-yilda nashr etilgan “Akkulturatsiyani o’rganish bo’yicha memorandum”da “akkulturatsiya” tushunchasining umumiy ta’rifini shakllantirish bilan birga uni “bir tomonlama” jarayon sifatida tavsiflovchi “akkulturatsiya modeli”ni ishlab chiqqan. 1954 yilda e’lon qilingan ikkinchi memorandumga ko’ra, akkulturatsiya jarayoni nafaqat bir tomonlama, balki ikki yoki ko’p tomonlama jarayon sifatida tavsiflangan. Ushbu ishlab chiqilgan memorandum orqali akkulturatsiya hodisasining “bilateral” va “politerial” modellari aniqlandi. XX asrning 50-60-yillarda dunyoning turli mintaqalarida tadqiqot ishlari olib borildi: g’arbiylashtirish, ispanlashtirish, yaponlashtirish, siniklashtirish va boshqalar. Mazkur amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalaridan, akkulturatsiyani o’rganish metodidan urbanizatsiya jarayoni va boshqa ijtimoiy sinfiy munosabatlarni o’rganish mumkinligi ma’lum bo’ldi (R.Bilz).

Keyinchalik, akkulturatsiya predmeti sifatida o’zga madaniyatni qabul qiluvchiga (retsipient) ta’sir etuvchi omillar tashkil etib, bunga misol sifatida tadqiqotchilar, zamonaviy jazz musiqasi Afrika va Yevropa musiqalarining o’zaro birikishi asosida paydo bo’lganligini keltirishadi. O’z o’rnida mazkur hodisani akkulturatsiyaning ikki tomonlama modeliga misol sifatida bayon etadi. E.L.Sitixning fikricha, akkulturatsiya konvergensiya, ya’ni madaniyatlarning yaqinlashuvi bilan chambarchas bog’langan. Shu munosabat bilan u 50-yillarda buni konvergensiya g’oyalari kapitalistik va sotsialistik tizimlarning integratsiyalashuvi sharoitida ishlab chiqilganligi bilan bog’lab ta’kidlaydi.

XX asrning 60-yillarida Meksikalik etnolog G.Agirre-Beltran “madaniy aloqalar turlarini: o’tmish va hozirgi, guruh va individual, doimiy va epizodik, induksiya qilingan va stixiyali” ga ajratgan⁷. O’tgan asrning 60-70-yillarda g’arbiy germaniyalik tadqiqotchi V.Rudolf ta’kidlaganidek, madaniyatlar o’zaro ta’sirlashganda, bir madaniyat boshqasiga nafaqat bevosita, balki bilvosita yozish yoki ma’lumot uzatishning boshqa shakli orqali ham ta’sir qiladi. Shu bilan birga, u “akkulturatsiyaning quyidagi jihatlari va shartlarini ajratib ko’rsatdi:

1. Innovatsiyalarning paydo bo’lishi va buning natijasida madaniy hodisalarning tanlanishi (seleksiya).
2. Chet el madaniyati elementlarini o’zlashtirgan shaxslarning shaxsiy tasavvurlari va ijtimoiy holati.
3. Madaniyatlararo ta’sir natijasida g’oyalar va institutlarning ma’no va o’rnini o’zgartirishi”⁸.

Sobiq Sovet fanida g’arblik hamkasblarning akkulturatsiya bo’yicha ishlariga qiziqish faqat o’tgan asrning 60-yillarida mashhur etnograf S.A.Tokarev tomonidan namoyon bo’ldi. S.A.Tokarev Amerika etnologlarining tushunchalarini tahlil qilib, ular tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan “akkulturatsiya” atamasining qulayligini ta’kidlagan. Akkulturatsiya deganda, bir xalq madaniyatining boshqa, odatda qo’shni xalq madaniyati ta’sirida o’zgarishi jarayonini tushunib, u hukmron madaniyat siyosiy va iqtisodiy bosim bilan qo’shib,

⁶ Клейн Л. С. Персонализм: Культура и личность // Развитие личности. - 2005. - № 2. - С. 163-170. <http://rl-online.ru>.

⁷ Абрамов А. Е. Правовая аккультурация: На примере Испании в период римской республики: Дис.... канд. юрид. наук: 12.00.01. М, 2005. С. 15.

⁸ Абрамов А. Е. Правовая аккультурация: На примере Испании в период римской республики: Дис.... канд. юрид. наук: 12.00.01. М, 2005. С. 16.



boshqasiga bir tomonlama ta'sir ko'rsatadi, - degan xulosaga keldi. Shunday qilib, S.A.Tokarev akkulturationsiyaning bir tomonlama modeli shakllanadigan siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarni birinchi o'ringa olib chiqdi. XX asr 60-yillarning o'rtalaridan 70-yillarning oxirigacha bu masalaga qiziqish keskin kamaydi. Buning sababi shundaki, akkulturationsiya tadqiqotchilari akkulturationsiya jarayonlarini o'rganish va tushunishda "klassik" va ma'lum darajada konservativ yondashuvlarga amal qilgan holda tadqiqot obyektlarining "zaxirasini" tugatgandek tuyuldi (I.A.Ushanova).

Ayni paytda, mazkur "tanaffus"ni XX asrning 60-70-yillarida mustamlakachilik tizimining yemirilishi natijasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lganligi bilan izohlanadi. Qadriyatlarni o'rganish borasidagi ishlar qayta ko'rib chiqilib, sobiq qabul qiluvchi madaniyatlar metropoliyalar va donor madaniyatlar irodasidan mustaqil bo'lib qoldilar. Qizig'i shundaki, 1980-yillarda akkulturationsiya madaniyatlararo psixologiyaning (etnopsixologiya) predmet sohasiga kirdi, uning vakillari oldingi davr tadqiqotlarining ilg'or g'oyalarini hisobga olib, ularni akkulturationsiyaning psixologik xususiyatlarini o'rganishda qo'llashga muvaffaq bo'ldilar. XX asr 80-yillarning oxirida o'zida akkulturationsiya jarayonining salbiy va ijobiy tomonlarini jamlagan "madaniyatning globallashuvi" atamasi paydo bo'ldi, Yuqoridagi ijobiy tarafi, zamonaviy dunyoda madaniy aloqalarning kengayishi xalqlarning yaqinlashishiga yordam bersa, salbiy tarafi esa, madaniy an'analarning hukmron madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan etnik ozchiliklarning madaniy o'ziga xosligining yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkinligi bilan tavsiflandi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida akkulturationsiya hodisasiga nisbatan strukturaviy, falsafiy va mafkuraviy yondashuvlar taqdim etilgan. B.M.Sujikovaning fikriga ko'ra, bunday tanqidga asoslangan mafkuraviy yondashuv eng batafsil hisoblanib, "burjua akkulturationsiya tushunchalari sifatida, "etnik plyuralizm", "marginal odam" va "etnik madaniyatlarining atrofiyasi" kabi atamalar yonma-yon qo'llaniladi⁹. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, akkulturationsiya murakkab, ko'p qirrali, ko'p tomonlaman ijtimoiy-tarixiy jarayon bo'lib, uni muayyan fan doirasida o'rganib bo'lmaydi¹⁰. Demak, turli fanlar uchun universal imkoniyatlarga ega bo'lgan metodologiyaga ehtiyoj bor¹¹. Shu munosabat bilan mazkur hodisa ijtimoiy-fenomenologik tahlil qilishni taqozo etadi. Akkulturationsiya konsepsiyasining yakuniy asoslarini ochish uchun mantiqiy-semantik tahlildan, ya'ni mantiqiy belgilarning voqelik tushunchalari bilan aloqasidan foydalanish uslubiy jihatdan samarali bo'ladi. Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tahlil ijtimoiy-falsafiy metodologiya nuqtayi nazaridan olib boriladi, chunki ijtimoiy falsafa umuminsoniy ijtimoiy-gumanitar fan bo'lib¹², u inson borlig'i olamining yaxlit ko'rinishi sifatida tushuntirishga intiladi¹³.

⁹ Сужикова, Б. М. Критика современных буржуазных концепций взаимодействия национальных культур (на примере концепций аккультурации): Дисс.... канд. филос. наук: 09.00.02. - Алма-Ата, 1984.-Режимдоступа: <http://diss.rsl.ru>.

¹⁰ Ушканова Р. Д. Опыт феноменологического анализа социальной философии // Вестник ЯГУ. - Якутск, 2008. - Том 5. - №4. - С. 112-115.

¹¹ Ушканова Р. Д. Методология социально-философского анализа в контексте истории философии // Вестник ЯГУ. - Якутск, 2007. - Том 4. - №4. - С.74-79.

¹² Махаров Е. М. Философия истории.- М: Мысль, 2004.- 189 с.

¹³ Гобзов И.А. Социальная философия как форма знания и познания: [http://www. polbu.ru](http://www.polbu.ru) (murojaat vaqti: 04.06.2022).



Xususiy ilmiy tadqiqotlarga nazariy qiziqish bilan bir qatorda, ushbu jarayonning mexanizmlari bilan shug'ullanadigan va uning subyektlarini boshqaradigan shaxslar tomonidan akkulturasiya jarayoniga professional va amaliy qiziqish ko'rsatiladi. Ijtimoiy-gumanitar siklining xususiy fanlari yuqori ixtisoslashgan usullarga tayanib, akkulturasiya jarayonini qismlarga bo'lib ko'rib chiqadi va asosan tavsiflaydi, lekin tushuntirmaydi. Shu munosabat bilan barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun umumiy metodologiya vazifasini bajara oladigan va ijtimoiy-tarixiy kontekstni imkon qadar hisobga oladigan fanga ehtiyoj bor. Akkulturasiya jarayonining eng muhim natijasi va maqsadi xorijiy madaniyatdagi hayotga uzoq muddatli moslashishdir. Atrof-muhit talablariga javoban individual yoki guruh ongidagi nisbatan barqaror o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Moslashuv odatda ikki jihatda - psixologik va ijtimoiy-madaniy jihatdan ko'rib chiqiladi. Psixologik moslashuv yangi madaniyat doirasida psixologik qoniqishga erishishdir. Bu farovonlik, psixologik salomatlik va yaxshi shakllangan shaxsiy yoki madaniy o'ziga xoslik hissi bilan ifodalanadi.

Ma'lumki, akkulturasiya odatda "donor-retsipient", "madaniy-sivilizatsiyasiz", "madaniylashgan-ibtidoiy", "do'st-dushman", "do'st-o'zga" tushunchalari bilan tavsiflanadi. Bunday qarama-qarshilik bilan akkulturasiya natijalari ham ziddiyat, qarama-qarshilik, urush, ham dialog, polilog, konsensus, kelishuv bo'lishi mumkin. Shunday qilib, akkulturasiya ijtimoiy va gumanitar fanlarning tadqiqot obyekti bo'lib, tabiiy ravishda ijtimoiy falsafaning barcha ijtimoiy fanlar va tabiiy fanlarning bir qismi tutashuvida joylashgan, shuningdek, inson mavjudligi dunyosining yaxlit ko'rinishini shakllantirishga xizmat qiladigan fan sifatida ijtimoiy fanlarning predmeti sohasiga kiradi va bu tabiiy fanlarning rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi.

NATIJALAR (RESULTS).

Yuqoridagi tamoyillarga tayanib, biz tomonimizdan tashkil etilgan tadqiqot mezo darajada olib borilgan bo'lib, unda tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz hududida tahsil olayotgan turli etnik guruhlarning vakili bo'lgan talabalar qatnashgan. Quyida berilgan jadval orqali tadqiqotimizda ishtirok etgan obyektlarning qaysi millat vakillari ekanligini bilib olishimiz mumkin.

1-jadval

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning etnik guruhga tegishlilik ko'rsatkichlari

No	Millat vakillari	Raqam	Foiz % da
1.	O'zbeklar	70 nafar	14,3%
2.	Qoraqalpoqlar	70 nafar	14,3%
3.	Ruslar	70 nafar	14,3%
4.	Koreyslar	70 nafar	14,3%
5.	Qozoqlar	70 nafar	14,3%
6.	Qirg'izlar	70 nafar	14,3%
7.	Tojiklar	70 nafar	14,3%
Umumiy:		490 nafar	100,0%

Tadqiqotda jami 490 nafar talabalar sinaluvchi sifatida ishtirok etib ularning tanlama to'plamdagi reprezentativligi to'liq ta'minlangan deyishimiz mumkin. Xususan, o'zbek



millatiga mansub talabalar 70 nafar, qoraqalpoq millatiga mansub talabalar 70 nafar, rus millatiga mansub talabalar 70 nafar, koreys millatiga mansub talabalar 70 nafar, qozoq millatiga mansub talabalar 70 nafar, qirg'iz millatiga mansub talabalar 70 nafar va tojik millatiga mansub talabalar 70 nafardan iborat bo'ldi.

2-jadval

Dj.Finnining "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezonini bo'yicha ko'rsatkichlari tahlili (n=490)

No	Qadriyatlar	X	σ	Z	p
1.	Kognitiv komponent	10,2000	5,52932	2,077	0,000***
2.	Affektiv komponent	12,3755	8,18909	2,997	0,000***
3.	Integral ko'rsatkich	30,7245	10,20163	2,078	0,000***

Sharh: ***- $p < 0,001$

Dj.Finnining "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasining natijalari tahliliga ko'ra kognitiv komponent bo'yicha ($Z=2,077$; $p \leq 0,001$), affektiv komponent bo'yicha ($Z=2,997$; $p \leq 0,001$) va integral ko'rsatkich bo'yicha ($Z=2,078$; $p \leq 0,001$) 100% noparametrik mezonlarga muvofiq keladigan natijalar mavjudigi aniqlandi. Barcha talabalarda o'z etnik guruhini yaxshi anglash, uning barcha o'ziga xos xususiyatlarini boshqa etnik guruh jihatlariga bilan solishtirgan holda idrok etish yuqori bo'lishi kuzatildi. Biz tarafdin tadqiqotimiz mobaynida o'tkazilgan navbatdagi psixodiagnostik vosita aynan talabalarda akkulturatsiya jarayonidagi etnik identiklik va madaniyatlar turlichaligini etnopsixologik jihatlariga qaratilgan bo'lgani bois, dastlab Dj.Finnining "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasining tahlilini keltirishni joiz deb bildik.

3-jadval


Dj.Finnining "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasining Kraskel-Uollis mezonini bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili (n=490)

No	Shkalalar	Millat vakillarining o'rtacha rang ko'rsatkichlari							Statistik qiymat
		O'zbeklar (n=70)	Qoraqalpoqlar (n=70)	Ruslar (n=70)	Koreyslar (n=70)	Qozoqlar (n=70)	Qirg'izlar (n=70)	Tojiklar (n=70)	
1.	Kognitiv komponent	244,09	248,52	222,06	266,73	234,83	257,15	245,12	4,416
2.	Affektiv komponent	263,57	226,95	236,42	247,22	248,01	260,23	236,10	3,737
3.	Integral ko'rsatkich	243,19	254,57	227,56	250,54	242,78	258,24	241,63	2,165

Sharh: $p < 0,05$ ishonch darajasida farqlar kuzatilmadi

Etnik identiklikning kognitiv komponentining - shaxs va guruhning etnik xususiyatlari to'g'risidagi bilim va g'oyalar, etnik guruhga mansublikni anglash, etnik avto- va

geterostereotiplarning mavjudligini anglatib, mazkur shkala bo'yicha ahamiyatli ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi ($H=4,416$, $p<0,621$). Xususan, o'zbek millatidagi talabalarda (244,09), qoraqalpoq millatidagi talabalar (248,52), rus millatli talabalar (222,06), koreys talaba-yoshlarida (266,73), qozoq talabalar (234,83), qirg'iz millatli talabalar (257,15), tojik millatdagi talabalar (245,12) natijalar bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarni barcha talabalarda o'z etnik guruhining barcha jihatlarini to'liq bilish, udumlarini o'zlashtirish, guruhidagi g'oyalar, an'analar kabilar haqida tasavvurlar, bilimlar mavjudligini katta farqlarga ega emasligi, shuningdek, ularda etnik o'ziga xoslik teng darajada shakllanganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon yaratadi. Koreys millatdagi talabalarda mazkur ko'rsatkich bo'yicha farqlarning qolgan talaba-yoshlarga qaraganda borligi ularning o'zlaridagi "...ular butparast bo'lib tug'ilganlar, konfutsiycha hayot tarzini olib boradilar, nasroniylarcha turmushga chiqadilar va buddist bo'lib boshqa dunyoga ketadilar" mazmunidagi fikr-mulohazalarida ifodalanishi bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, ushbu jihatda koryes millatiga mansub talabalarda konfutsiylik odob-axloqining asosiy tamoyillaridan biri, an'analarga, urf-odatlariga, ajdodlar ruhiga sodiqlik ham etnik identiklikning kognitiv komponentining yuqori rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi ham mumkin.



1-rasm. Sinaluvchilarning Dj.Finnining "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasi bo'yicha ko'rsatkichlari

Etnik identiklikning affektiv komponenti, o'zida etnik jamoalarga bo'lgan munosabatni, etnik guruhga mansublikni baholashni, etnik stereotiplarning yo'nalishini va etnik imtiyozlarni ifodalaydi. Qiziqarli jihati mazkur daraja bo'yicha ham turli millatga mansub talaba-yoshlarda ham ishonch darajasidagi ahamiyatga molik farqlarning mavjud bo'lmaganligida ko'rinib ($H=3,737$, $p<0,712$), o'zbek millatidagi talabalarda (263,57), qoraqalpoq millatidagi talabalar (226,95), rus millatli talabalar (232,42), koreys talaba-yoshlarida (247,22), qozoq talabalar (248,01), qirg'iz millatli talabalar (260,23), tojik millatdagi talabalarda (236,10) tashkil etdi. O'zbek millatidagi talabalarda affektiv komponentning boshqa millat vakili bo'lgan talaba-yoshlarga qaraganda nisbatan yuqori



bo'lishi ulardagi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan umrboqiy qadriyatlarining oila maskanida mustahkam shakllanishi va targ'ibotning kuchli ifodalanishi bilan ham tavsiflashimiz mumkin.

Etnik identiklikning integral ko'rsatkichi - shaxsning ma'lum bir etnik guruhga mansublik tajribasi, uning vakillariga xos fazilatlar mavjudligini bilish, ta'lim va faoliyat sohasidagi etnik jihatdan aniqlangan imtiyozlarni baholash kabilarda namoyon bo'ladi, mazkur komponent bo'yicha ham sinalluvchilarimizning natijalari o'rtasida ishonch ko'rinishiga ega bo'lgan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ($H=2,165$, $p<0,904$). Jumladan, o'zbek millatidagi talabalarda (243,19), qoraqalpoq millatidagi talabalar (254,57), rus millatli talabalar (227,56), koreys talaba-yoshlarida (250,54), qozoq talabalar (242,78), qirg'iz millatli talabalar (258,24), tojik millatdagi talabalarda (241,63) tashkil etdi. Ushbu umumiy ko'rsatkich bo'yicha nisbatan yuqori natijalar qirg'iz millatiga mansub talabalarga tegishli bo'lib, bu jihatni qirg'izlarning etnik xususiyatlari xalqning tarixiy taraqqiyotida shakllanganligi, ko'chmanchi turmush tarzi qirg'izlarning etnik xususiyatlarining shakllanishida asosiy shart va omil bo'lganligi, ko'chmanchi turmush tarzining ba'zi an'analari saqlanib qolinganligi va umuman qirg'izlar hayotiga, xususan, yosh avlodning ijtimoiylashuviga urug'-aymoqchilik an'alarining ta'siri yuqoriligi kabilarda bilan ham xarakterlash fikrimizcha joiz.

O'zaro munosabatlar yaqin oila rishtalariga asoslanadi: to'y, dafn va boshqa marosimlarda qarindoshlarga yordam berish va qarindoshlardan yordam kutish, yetim va yolg'izlarga yordam berish, kambag'allarga yordam berish kabilarda. Qirg'izlar o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlari quyidagi tamoyillarga: o'z qarindoshlarini hurmat qilish (qarindoshlar bilan doimo yaxshi munosabatda bo'lish), qarindoshlarning o'zaro yordami bir-biriga yordam ko'rsatishi, ularning iltimoslarini rad qilmaslik, ularga har tomonlama yordam berish, qarindoshlardan yordam kutish, qarindoshlarni qiyinchilikda qoldirmasligiga ishonch hosil qilish, qarindoshlik munosabatlari insonparvarlik, o'zaro tushunish va bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Oilaviy munosabatlar insonlarning juda yaqin ijtimoiy munosabatlari bo'lib, qirg'izlar hayotida turli funksiyalarni bajaradi. Qarindoshlik munosabatlarining vazifalaridan biri yosh avlodni ijtimoiylashtirishdir. Shuning uchun qirg'izlarning oilaviy munosabatlarini an'alar, ijtimoiylashuv vositasi va omili deb hisoblash mumkin.

XULOSA (CONCLUSION).

Akkulturatsiya – madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bir millat vakillari tomonidan boshqa etnik jamoa madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etish jarayonining natijasidir. Akkulturatsiya, shuningdek, hukmron etnik jamoaning xulq-atvor normalarini, kundalik hayot namunalari, madaniyatini qabul qilishni nazarda tutadi. Zamonaviy dunyoni qamrab olgan globallashuv jarayoni noaniq baholarni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, globallashuv xalqlarni birlashtiradi, ular orasidagi tarixiy to'siqlarni yo'q qiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga yordam beradi. Biroq, boshqa tomondan, aynan globallashuv etnik va madaniy o'ziga xoslikni yo'q qilishga, hayotni begona standartlar bo'yicha birlashtirishga tahdid soladi va shuning uchun etnik shaxslarning faol qarshiliklarini keltirib chiqaradi. Bu hodisani etnik jamoaning boshqa birlashmalar va uyushgan guruhlar kabi ma'lum bir umumiy qonuniyatga bo'ysungan



holda o'zini-o'zi saqlab qolishga intilishi bilan izohlash mumkin. Akkulturationsiyaning asosi kommunikativ jarayondir. Mahalliy aholi o'zlarining madaniy xususiyatlarini bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari natijasida madaniy an'analarni o'zlashtirgani kabi, yangi kelganlar ham muloqot orqali yangi madaniy sharoitlar bilan tanishadilar va yangi ko'nikmalarni egallaydilar. Shuning uchun akkulturationsiya jarayonini yangi madaniyat uchun kommunikativ qobiliyatlarni egallash sifatida qarash mumkin. Ko'p yillik muloqot tajribasi tufayli odamlar yangi sharoitlarda zarur bo'lgan narsalarni o'zlashtiradilar.

Etnik identiklikning kognitiv komponentining - shaxs va guruhning etnik xususiyatlari to'g'risidagi bilim va g'oyalar, etnik guruhga mansublikni anglash, etnik avto- va geterostereotiplarning mavjudligini anglatib, mazkur shkala bo'yicha ahamiyatli ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi ($H=4,416$, $p<0,621$). Ushbu ko'rsatkichlarni barcha talabalarda o'z etnik guruhining barcha jihatlarini to'liq bilish, udumlarini o'zlashtirish, guruhidagi g'oyalar, an'analari kabilar haqida tasavvurlar, bilimlar mavjudligini katta farqlarga ega emasligi, shuningdek, ularda etnik o'ziga xoslik teng darajada shakllanganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon yaratadi.

References:

1. Социологическая энциклопедия. // Национальный общественно-научный фонд. Рук.науч.проект. Г.Ю.Семигин. - М., 2003. - В 2-х тт. - Т. - 694 с.
2. Гегель Г. Наука логики. - СПб, 1997. - 799 с. <http://ihtik.lib.ru>
3. Кожевников Н. Н. От равновесия к равновесию: концептуальный анализ относительных равновесий в природе. - М.: Мысль, 1997. - 10 с.
4. Муравьев Ю. А. Сущность и структура культуры: <http://www.countries.ru>
5. Культура и культурология: словарь / Сост. и ред. А.И. Кравченко. - М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. - 450 с.
6. Клейн Л. С. Персонализм: Культура и личность // Развитие личности. - 2005. - № 2. - С. 163-170. <http://rl-online.ru>.
7. Сужикова, Б. М. Критика современных буржуазных концепций взаимодействия национальных культур (на примере концепций аккультурации): Дисс.... канд. филос. наук: 09.00.02. - Алма-Ата, 1984.-Режимдоступа: <http://diss.rsl.ru>.
8. Ушканова Р. Д. Опыт феноменологического анализа социальной философии // Вестник ЯГУ. - Якутск, 2008. - Том 5. - №4. - С. 112-115.
9. Ушканова Р. Д. Методология социально-философского анализа в контексте истории философии // Вестник ЯГУ. - Якутск, 2007. - Том 4. - №4. - С.74-79.
10. Махаров Е. М. Философия истории.- М: Мысль, 2004.- 189 с.
11. Гобозов И.А. Социальная философия как форма знания и познания: <http://www.polbu.ru> (murojaat vaqti: 04.02.2022).